

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI IJODIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA UMUMKASBIY FANLARNING
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH**

F.Turakulova

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan pedagog tarbiyachilarni umumkasbiy fanlar orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy pedagogik maqsadlarini bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, kompetentlik, bo‘lajak pedagog, tarbiyachi, umumkasbiy, qobiliyat, tarbiyachining nutqi, ijod, kreativ, ohang, pauza, tembr, urg‘u, intonatsiya.

Аннотация: В данной статье описаны основные педагогические цели развития творческих способностей педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях, что считается одним из наиболее актуальных вопросов на данный момент.

Ключевые слова: педагог, компетентность, будущий педагог, воспитатель, общепрофессиональный, способности, речь педагога, креативность, креатив, тон, пауза, тембр, акцент, интонация.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ta’lim sifatini amalga oshirish muammosi ta’lim muassasasining barcha turlari uchun asosiy vazifalardan biridir. Bu boradagi ustuvor yo‘nalishlardan biri pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga qobiliyati va kompetentlik tayyorgarligi darajasini oshirishdan iborat. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo‘nalishi bu tizimni boshqarish modelini o‘zgartirishdir. Bevosita maqsad - ta’lim siyosatining barcha sub’ektlarining vakolatlari, funktsiyalari va majburiyatlari aniq taqsimlangan va muvofiqlashtirilgan holda optimal boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev takliflari asosida ko‘plab maktabgacha ta’lim va yangi umumta’lim maktablari zamon talablari asosida barpo qilinadi. Bugungi kunda fan-texnika rivojlanishi umumta’lim mакtablarida olib boriladigan katta islohotlar ta’lim-tarbiyaning mazmunini o‘zgartirishini shuningdek, ta’lim tizimini zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda. Maktabgacha ta’lim va

tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Bo‘lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalashda “Maktabgacha pedagogika”, “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish”, “Ta’lim tarbiyani tashkil etish” fanlarini o‘qitish orqali talabalarning ijodiy faoliyati rivojlanib boriladi. Mazkur fanlar orqali bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, dars jarayonida qo‘l mehnatlari tayyorlash, mashg‘ulot ishlanmalarini tuzish, tarbiyachining ish hujjatlarini o‘rganish orqali ham talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi. Umumkasbiy fanlarni o‘tish jarayonida talabalarda yosh avlodga yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko‘nikma va malakalar hajmini, o‘qituvchi shaxsida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari kerak.

“Maktabgacha pedagogika” fanida tarbiyachilarga xos bo‘lgan kasbiy mahorati, qobiliyati shakllangan bo‘lishi kerak.

Tarbiyachining kasbiy mahorati - bu ma’lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.).

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Bo‘lajak tarbiyachining qobiliyati oliy ta’lim muassasasida olgan bilimlarini o‘zining ijodiy qobiliyatidan kelib chiqib maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llay oladi.

“Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani orqali talabalarda nutq madaniyati hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanib boriladi.

Nutq madaniyati -bu fikrlarni to‘g‘ri ifodalay olish, ya’ni fikr birdirish jarayonida nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni inobatga olgan holda tilning barcha vositalaridan (til vositalaridan, shuningdek, ohang, pauza, tembr, urg‘u, intonatsiya, leksik zaxira, gapning grammatik tuzilishidan) to‘g‘ri foydalangan holda, bayon qilinayotgan mavzuga mos tarzda gapirishdan iborat. Tarbiyachi bolalarga ertak, hikoya, rivoyat, she’r o‘qib berish jarayonida nutqning ifodaviy vositalaridan o‘rinli foydalansa, bolalarning asar mazmunini yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi.

Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga o‘rgatish uslub va uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo‘yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I. Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak yuksak baho berib, shunday degan edi: “Bog‘chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog‘bon)ning

tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g‘oyat samarali va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan hamma narsalarni o‘zida birlashtiradigan bo‘lishi kerak. Bog‘bonning tili bekamu ko‘st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo‘lishi lozim”. Har bir tarbiyachi, pedagog o‘z nuqiga qo‘yiladigan pedagogik talablarni yaxshi bilishi hamda nutqidagi mavjud kamchiliklarni aniqlab, to‘g‘irlab borishi kerak degan fikrlarni aytgan.

Pedagog-tarbiyachi o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida “Bo‘lajak tarbiyachilarga” o‘tilayotgan umumkasbiy fanlar o‘qitilishi orqali ularda kasbiy ijodkorlik rivojlanib boriladi. Umumkasbiy fanlar orqali bo‘lajak tarbiyachilarda ko‘nikma, malaka shakllanib boradi va asta sekinlik bilan ijodiy qobiliyatları rivojlantiriladi. Bo‘lajak tarbiyachilar dars jarayonida bajarayotgan ishlari orqali kasbiga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida” qonuni. 2020 yil 23- sentabr
2. “Pedagogik menejment asoslari” A.E.Kenjabayev, B.X.Karimova O‘quv qo‘llanma. Termiz-2023-y
3. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faoliyatini o‘ziga xosligi” Norqo‘ziyeva M.A. maqola.
3. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o‘quv qo‘llanma / Tuzuvchi mualliflar: X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021.